



O'ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA DAVRI TARIXI

*Qo'qon universiteti Andijon filiali IT va Ijtimoiy gumanitar fanlar tarix
yo'nalishi 1-kurs 25-06 guruh talabasi G'aniyeva Shaxnozaxon*

Annotatsiya . Bu maqolada O'zbekiston hududida bronza davrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va madaniy markazlari haqida so'z yuritiladi. Sopollitepa, Jarqo'ton, Zamonbobo kabi yirik manzilgohlar misolida bu davrda yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bronza davrining O'zbekiston xalqlari tarixidagi o'rni, ilk davlat tuzilmalari shakllanishi va metall ishlab chiqarishning rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: bronza, Sopollitepa, Jarqo'ton, Zamonbobo, tosh, suyak, hunarmandchilik, metal.

O'zbekiston hududi qadim zamonlardan boshlab insoniyat taraqqiyotining muhim o'choqlaridan biri bo'lgan. O'zbekistonda bronza O'zbek xalqining etnik tarixi shu hudud tarixi bilan bevosita bog'liq. O'zbek xalqi ajdodlari elat bo'lib O'rta Osiyoning Baqtriya, So'g'diyona, Shosh, Farg'ona, Xorazm kabi tarixiy o'lkalarida va shu o'lkalarga tutash bo'lgan hududlarda yashab kelgan. Bu yerda tosh asridan keyingi bosqich — bronza davrida iqtisodiy va madaniy hayot sezilarli darajada rivojlandi. Aynan shu davrda kishilik jamiyatida ishlab chiqarishning yangi usullari paydo bo'ldi, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi va ilk davlat tizimlariga asos yaratildi. Manbalardan malumki, bronza davri O'zbekiston hududida miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda boshlangan. Bu davrda odamlar misga qalay aralashtirib bronza metallini olishni o'rgandilar. Bu metall mehnat qurollari, qurollar va bezak buyumlari yasashda keng qo'llanildi. Bronzaning kashf



etilishi ishlab chiqarish texnologiyasida katta burilish yasadi va yangi hunarmandchilik tarmoqlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Bronza davrida O'rta Osiyoda ko'chmanchi chorvachilikka va o'troq dehqonchilikka asoslangan madaniyatlar ahli yashashgan. Bu davrda O'zbekiston hududida bir nechta yirik madaniyat markazlari shakllangan bo'lib, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'ton manzilgohlaridir. Zamonbobo madaniyati Surxondaryoda joylashgan bo'lib, aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Ular loydan idishlar yasagan, tosh va suyakdan qurollar tayyorlagan. Sopollitepa madaniyati mil. avv. II ming yillik o'rtalariga doir manzilgoh bo'lib, Sopollitepa aholisi birinchi marta shahar tipidagi manzilgohlarni barpo qilgan. Uylar xom g'ishtdan qurilgan, ko'chalari rejalashtirilgan, himoya devorlari bo'lgan. Bu joyda ijtimoiy tabaqalanish alomatlari – boy va kambag'al uylar, turlicha buyumlar topilgan. Jarqo'ton madaniyati Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan bo'lib, mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshiga taalluqli. Jarqo'ton yirik diniy va madaniy markaz bo'lgan. Bu yerdan ibodatxona, oltin va bronzadan yasalgan bezak buyumlari, haykallar topilgan. Jarqo'ton aholisi bronza quyish, kulolchilik, to'qimachilik va zargarlik bilan shug'ullangan.

Bronza davrida O'zbekiston hududida iqtisodiy hayot sezilarli darajada o'zgardi. Dehqonchilik sug'orish tizimlari orqali amalga oshirilgan, bug'doy, arpa, no'xat ekilgan, chorvachilikda qo'y, echki, qoramol boqilgan. Hunarmandchilik tarmoqlari, xususan metallga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik, sopol idish yasash keng tarqalgan. Bu davrda savdo almashuvi vujudga kelgan, ya'ni aholilar o'zaro tovar ayirboshlagan.

Bronza davrida diniy e'tiqodlar shakllana boshlagan. Odamlar quyosh, oy, suv va yer kuchlariga sig'ingan. Qabrlarda topilgan buyumlar shuni ko'rsatadiki, ular o'limdan keyingi hayotga ishonishgan. Diniy qarashlar sohasida esa odamlar



tabiat kuchlarini ilohiylashtira boshlagan, o'limdan keyingi hayotga ishonish, marosimlar o'tkazish kabi e'tiqodlar keng tarqalgan. Bu jarayon madaniyat va san'atning rivojiga ham turtki bo'lgan. San'atda hayvonlar, qushlar, odamlar tasvirlari ishlangan sopol idishlar, haykalchalar paydo bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, bronza davri O'zbekiston hududida sivilizatsiya shakllanishi uchun poydevor bo'ldi. Bu davrda shaharlar vujudga keldi. Sopollitepa va Jarqo'ton kabi manzilgohlarning o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida ilk shahar madaniyati va davlatlilik alomatlari aynan bronza davridayoq shakllana boshlagan. Uylarning rejalashtirilgan holda qurilishi, himoya devorlari, ibodatxonalar va maxsus ustaxonalarning mavjudligi bu davrda ijtimoiy hayot murakkablashganidan dalolat beradi. Natijada ijtimoiy tabaqalanish paydo bo'ldi, mehnat taqsimoti shakllandi, diniy markazlar va ibodatxonalar qurildi, keyingi temir davri va ilk davlatlar ya'ni, Baqtriya, So'g'd, Xorazm davlatlarining rivojlanishiga asos yaratildi. Bronza davrida ijtimoiy tabaqalanish kuchaygan, ya'ni jamiyatda boylar va kambag'allar, rahbarlar va oddiy mehnatkashlar o'rtasida farq paydo bo'lgan. Bu esa keyinchalik davlat boshqaruvi tizimining paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Bu davr xalqimizning qadimiy bunyodkorlik, mehnatsevarlik va ijodkorlik an'analari shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **“Avesto”** – Qadimgi Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining diniy-falsafiy yodgorligi. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2001.
2. **Herodot.** *Tarix.* – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008.
3. **Strabon.** *Geografiya.* – Toshkent: “Sharq”, 2010.
4. **Behistun yozuvlari.** (Ahamoniylar davri manbalari tarjimalari). – Toshkent: “Fan”, 1999.



5. **Asqarov A.** *O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan XI asrgacha)*. – Toshkent: “Sharq”, 1994.
6. **Sagdullayev A.** *O'zbekistonning qadimgi tarixi*. – Toshkent: “Universitet”, 2003.
7. **Asqarov A., Abdullayev M.** *Sopollitepa va Jarqo 'ton madaniyatlari*. – Toshkent: “Fan”, 1983.
8. **Yo'ldoshev Sh., Ismoilov B.** *O'zbekiston tarixi (qadimgi davrlardan to hozirgacha)*. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019.
9. **Matboboyev B.** *O'zbekiston arxeologiyasi: qadimgi manzilgohlar va madaniyatlar*. – Toshkent: “Fan”, 2010.
10. **Shirinov T.** *Janubiy O'zbekiston bronza davri yodgorliklari*. – Toshkent: “Fan”, 1990.
11. **Asqarov A.** *Sopollitepa – bronza davri manzilgohi*. – Toshkent: “Fan”, 1973.
12. **Asqarov A., Abdullayev M., Shirinov T.** *Jarqo 'ton – ilk shahar madaniyati markazi*. – Toshkent: “Fan”, 1985.
13. **Tolstov S.P.** *Drevniy Xorezm*. – Moskva: “Izdatel'stvo Akademii Nauk SSSR”, 1948.
14. **G'ulomov Ya.G'.** *Sug'orish inshootlari tarixi*. – Toshkent: “Fan”, 1979.
15. **Toychiboev E.** *O'zbekiston arxeologik yodgorliklari va ularning davriylashtirilishi*. – Toshkent: “Fan”, 2012.